

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 9 Jild 4

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 9 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

|                                                                                                                                                                  |       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i><br>RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT<br>HAYOTIDAGI O'RNI .....                  | 10-14 |
| <i>Azizbek Xolliyev</i><br>XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA<br>SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .....                            | 15-20 |
| <i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i><br>SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN<br>O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .....                   | 21-25 |
| <i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i><br>SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR<br>(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) ..... | 26-31 |
| <i>Намазова Умида Нормурадовна</i><br>ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА<br>ХУСУСИЯТЛАРИ .....                                       | 32-41 |
| <i>Самадов Искандар Исмамович</i><br>ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .....                                                               | 42-48 |
| <i>Rustamova Madina Musoqulovna</i><br>SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA<br>QO'SHGAN HISSASI .....                         | 49-56 |
| <i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i><br>SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI...                                         | 57-64 |
| <i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i><br>MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY<br>TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .....                       | 65-68 |

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

|                                                                                                                                                |        |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|
| <i>Tolipova Baxtigul</i><br>MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING<br>EKONOMETRIK TAHLILI .....                       | 69-77  |
| <i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI ....                      | 78-83  |
| <i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i><br>ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА<br>В УЗБЕКИСТАНЕ ..... | 84-96  |
| <i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i><br>INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI ....                                   | 97-104 |

|                                                                                                                                                                                                                 |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i><br>КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ<br>МАСАЛАЛАРИ .....                                                                                                  | 105-109 |
| <i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i><br>APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN<br>INVESTMENT FUNDS .....                                                                                 | 110-120 |
| <i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i><br>MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI<br>ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI .....                                                                | 121-129 |
| <i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i><br>ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT<br>INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....                                              | 130-138 |
| <i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i><br>AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....                                                                                                                  | 139-144 |
| <b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>                                                                                                                                                                               |         |
| <i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i><br>RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ<br>QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH<br>MEXANIZMLARI ..... | 145-155 |
| <i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i><br>GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING<br>TAKOMILLASHUVI JARAYONI .....                                                                                          | 156-161 |
| <i>Рахманов Баҳодир</i><br>АЛИШЕР НАВОЙИ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК<br>ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ .....                                                                                                          | 162-170 |
| <i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i><br>ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ<br>ТАҲЛИЛИ .....                                                                                        | 171-176 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                                                                            |         |
| <i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i><br>KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....                                                                                                   | 177-184 |
| <i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i><br>ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР .....                                                                                                            | 185-190 |
| <i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i><br>“BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI .....                                                                                                                            | 191-197 |
| <i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i><br>JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA<br>INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) .....                                                | 198-201 |
| <i>Tangriyev Valisher Azamovich</i><br>SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING<br>QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA .....                                                         | 202-206 |

|                                                                                                                                                                                                                                                                  |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Abulova Zilola Azimovna</i><br>INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN<br>IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI .....                                                                                                            | 207-201 |
| <i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i><br>TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....                                                                                                                                                              | 210-216 |
| <i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i><br>ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI .....                                                                                                                                                           | 217-221 |
| <i>Babajanova Aziza Rustamovna</i><br>ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI .....                                                                                                                                                          | 222-227 |
| <i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i><br>REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH<br>DICTIONARIES .....                                                                                                                                    | 228-232 |
| <i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i><br>O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI .....                                                                                                                                                                 | 233-238 |
| <i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i><br>INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLIGIK<br>BIRLIKRLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....                                                                                               | 239-242 |
| <b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>                                                                                                                                                                                                                                 |         |
| <i>Tўлаганова Гулчехра Захитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i><br>АЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ<br>РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ<br>ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....               | 243-252 |
| <i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i><br>INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN<br>BOG'LIQ JINOYATLAR .....                                                                                                                                      | 253-262 |
| <i>Ikramov Sherzod Raximdjaniyovich</i><br>VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA<br>XOS XUSUSIYATLARI .....                                                                                                                  | 263-266 |
| <b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>                                                                                                                                                                                                                             |         |
| <i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i><br>KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOYIY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK<br>O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOIY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI<br>DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) .....          | 267-274 |
| <i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i><br>OLIY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA<br>ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB<br>BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI ..... | 275-281 |
| <i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i><br>BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH<br>IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI .....                                                                                          | 282-292 |
| <i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i><br>BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI .....                                                                                                                                                | 293-301 |

|                                                                                                                                                                                                      |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Алимова Нигора Исраиловна</i><br>ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ,<br>НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ .....                                                      | 302-308 |
| <i>Matajonova Gulnoza Karimovna</i><br>IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB<br>MUAMMOLARI .....                                                                    | 309-313 |
| <i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i><br>GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI .....                                                                                                        | 314-319 |
| <i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i><br>OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI<br>YARATISH TEXNOLOGIYALARI .....                                              | 320-323 |
| <i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i><br>QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI<br>TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI .....                                                          | 324-329 |
| <i>Юсупова Заррина Курбоновна</i><br>УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ<br>ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ .....                                                                 | 330-334 |
| <i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i><br>МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH<br>KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI .....                                      | 335-340 |
| <i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i><br>GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....                                                                                           | 341-345 |
| <i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i><br>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK<br>MUAMMO SIFATIDA .....                                                 | 346-351 |
| <i>Mustayeva Guliston Bo'riboyevna</i><br>TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY<br>RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH .....                                                 | 348-356 |
| <i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i><br>TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA<br>INNOVATSION JIHLTLARI .....                                                            | 357-362 |
| <i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i><br>ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND<br>EFFICIENCY .....                                                                               | 363-388 |
| <i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i><br>BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY<br>HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI<br>RIVOJLANTIRISH USULLARI..... | 389-393 |
| <i>Maxliyo Qalandarova</i><br>UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIIYAVIIY<br>SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....                                   | 394-399 |

**Received:** 30 August 2024  
**Accepted:** 5 September 2024  
**Published:** 15 September 2024

*Article / Original Paper*

## **THE PLACE OF BRITISH CAPITAL IN THE RUSSIAN MINING INDUSTRY AT THE END OF THE 19th – EARLY 20th CENTURIES**

**Kholliiev Azizbek,**

(DSC) Acting professor, National University of Uzbekistan  
E-mail: azizbekholliiev@gmail.com

**Abstract.** This article comprehensively covers the contribution of foreign investment to the development of the mining industry, which occupied an important place in the Russian economy in the historical conditions of the late 19th - early 20th centuries. The main attention is paid to the analysis of the activities of companies and enterprises with the participation of British capital.

**Keywords:** Russia, economy, industry, development, mining industry, foreign investment, Great Britain.

## **XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG‘-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O‘RNI**

**Azizbek Xolliyev,**

O‘zbekiston Milliy universiteti professor v.b., t.f.d

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlariga xos bo‘lgan tarixiy sharoitlarida Rossiya iqtisodiyotida muhim o‘rin egallagan tog‘-kon sanoatining rivojlanishiga xorijiy sarmoyalarning qo‘shgan hissasi atroflicha yoritilgan. Asosiy e‘tibor Britaniya sarmoyasi ishtirokidagi kompaniyalar va korxonalarning faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Rossiya, iqtisodiyot, sanoat, rivojlanish, tog‘-kon sanoati, xorijiy sarmoyalar, Buyuk Britaniya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N02>

**Kirish.** Rossiya iqtisodiyotining ko‘rib chiqilayotgan davrdagi rivojlanishi sanoatning turli tarmoqlariga kiritilgan chet el samoyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Rossiya tog‘-kon sanoatida muhim o‘rin egallagan bir qator korxonalarning faoliyatida Buyuk Britaniya sarmoyalari sezilarli darajada ishtirok etdi. Qolaversa, kiritilgan sarmoyalarning geografiyasi ham keng bo‘ldi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Nemis tadqiqotchisi K.Xellerning fikricha, tarixiy adabiyotlarda xorijiy sarmoyalarning ta‘siri alohida ta‘kidlanadi [1].

Shuni ta‘kidlash kerakki, Rossiya sanoatida xorijiy sarmoyalarning ulushi turlicha baholanadi. Jumladan, O.Platonovning hisoblashicha, Rossiyaning xorij sarmoyasiga nisbatan qandaydir alohida qaram pozitsiyasi haqidagi fikrdan farqli o‘laroq, sanoatga kiritilgan xorijiy mablag‘larning umumiy hajmi barcha sanoat sarmoyalarining 9-14% dan ko‘p bo‘lmagan [2].

L.V.Vasilyeva, o‘z navbatida, shuni ta‘kidlaydiki, ba‘zi tadqiqotchilar tomonidan tanqidiy munosabat bildirilgan P.V.Olning ma‘lumotlariga ko‘ra, 1880-1913 yillarda Rossiya sanoatiga kiritilgan barcha sarmoyalarning qariyb 50% xorijdan kelib chiqqan edi [3].

P.V.Olning o'zi o'z tadqiqotida keltirgan raqamlarga ko'ra, Rossiyada aksiyadorlik va hissadorlik korxonalarida ishlagan xorijiy sarmoyalar miqdori 1850-yilda 2,7 mln. rubl, 1860-yilda 9,7 mln. rubl, 1870-yilda - 26,5 mln. rubl, 1880-yilda - 97,7 mln. rubl, 1890-yilda - 214,7 mln. rubl, 1895-yilda - 245 mln. rubl, 1901-yilda - 975,0 mln. rubl, 1909-yilda - 1243,0 mln. rubl, 1914-yilda - 2125,1 mln. rublni tashil qilgan [4].

Umuman olganda, Rossiya iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'rsatkichlari dinamikasi doimiy o'sish bilan tavsiflangan.

1895-yildan boshlab Rossiyaga xorijiy sarmoyalarning sezilarli darajada kirib kelishi kuzatildi. Xuddi shunday oqim 1910-yildan keyin ham ko'zga tashlandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bir qator mamlakatlarning, shu jumladan Rossiyaning iqtisodiy, birinchi navbatda, sanoat rivojlanishi xorijiy immigratsiya va chet el sarmoyalari kirib kelishining katta ta'siri ostida ro'y berdi.

Ajnabiylarning ko'chib kelishi orqali mamlakat boshqa yurtlarda ixtiro qilingan va yangi turdagi tovarlarni ishlab chiqarish, mahsulotlarni tez va sifatli yaratish imkonini beradigan ishlab chiqarishning yangi tarmoqlari, usul va texnikalari bilan tanishdi.

Rossiya iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish g'oyasi hukumat doiralarida ham qo'llab-quvvatlandi.

Jumladan, S.Yu.Vitte ham Rossiyaga chet el sarmoyalarni jalb etish tarafdori edi. U 1900-yil fevraldagi "ojizona" ma'ruzasida Rossiya sanoatini rivojlantirish muammolarini tahlil qildi va o'z mablag'lari yetishmasligi sharoitida xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni asosli ravishda taklif qildi [5].

**Tahlil va natijalar.** Rossiya iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy moliyalarning umumiy hajmi orasida britaniyaliklar sarmoyasi muhim o'rinni egalladi va sanoatning ayrim tarmoqlarida ustunlikka ega bo'ldi.

O'rganilayotgan davrda ko'pgina xorijiy kompaniyalar, shu jumladan Britaniya kompaniyalari ishlab chiqarish bazasini Rossiyaning o'zida rivojlantirishga intilishdi.

Britaniyalik tadbirkorlarning manfaatlarini tog'-kon sanoatiga ham yoyildi.

1880-yillaridayoq Rossiyaning tog'-kon sanoatidagi xorijiy sarmoyalar butun Rossiya sanoatiga kiritilgan chet el sarmoyalarning deyarli yarmiga teng edi.

Xususan, bir qator o'ziga xos sharoitlar Rossiyadagi mis ishlab chiqarish sohasida qulay va barqaror vaziyatni ta'minladi va mustahkamladi. Bu boradagi asosiy omil elektrotexnika sanoatining doimiy ravishda kengayib borayotgan talabi bo'lib, bu mis narxining mamlakatning o'zida ham, xorijda ham oshishiga olib keldi.

Ushbu sharoitlarning barchasi xorijiy sarmoyalarning rus misiga qiziqishini o'yg'otdi va Rossiyaning mis konlariga mablag'lar oqimini keltirib chiqardi. Ammo eng ko'p manfaatdor bo'lgan inglizlar sarmoyasi bo'lib chiqdi.

Britaniya sarmoyasi ham sof ingliz korxonalarini, ham ingliz kompaniyalarining moliyaviy nazorati ostida bo'lgan rus kompaniyalarini tashkil etish orqali harakat qildi.

Birinchilar qatoriga ikkita kompaniyani kiritish mumkin, ulardan biri Kavkazda, ikkinchisi esa Sibirda joylashgan edi, ya'ni: sarmoyasi 17,6 mln. rubl bo'lgan "Kavkaz mis sanoati jamiyati" va 9,2 mln. rubl sarmoyaga ega bo'lgan "Spassk mis rudalari aksiyadorlik jamiyati" [6].

"Kavkaz mis sanoati jamiyati" 1900-yil oktyabr oyida Londonda «Baring Brothers», «J.S.Morgan & S<sup>o</sup>» va «C.J.Hambro & Son» banklaridan iborat sindikat tomonidan ro'yxatga

olindi. Kompaniyani yaratishdan maqsad Dzansul uezdida mis konlarini ishlatish edi (Artvin okrugi, Batum guberniyasi). “Kavkaz mis sanoati jamiyati” faoliyatining barcha moliyaviy jihatlarini yuqorida qayd etilgan uchta bank nazorati ostida bo’ldi.

1913-yilda Dzansul konida ruda qazib olish hajmi (Dzansul, Xod va Kvarsxan konlarida mamlakatdagi mis rudasining 20% yaqini qazib olinar edi) 224,5 ming tonnani tashkil qildi [7].

Britaniya uyushmalarining moliyaviy nazorati ostidagi rus kompaniyalari orasida Uraldagi 3 korxona bor edi: sarmoyasi 16 mln. rubl bo’lgan “Qishtim kon zavodlari jamiyati”, sarmoyasi 6,0 mln. rubl bo’lgan “Sisert tog’-kon okrugi aksiyadorlik jamiyati” va sarmoyasi 6,0 mln. rubl bo’lgan “Janubiy Ural tog’-kon sanoati jamiyati”.

Bundan tashqari, Britaniya sarmoyasi “Yuqori Iset tog’-kon va mexanika zavodlari, sobiq Yakovlevniki, aksiyadorlik jamiyatini” moliyalashtirishda taxminan 2 mln. rubl miqdorida ishtirok etdi (ta’sis etilgan paytdagi asosiy sarmoya 12.544.000 rubl edi) [8]. Rossiyaning mis eritish sanoatida ingliz sarmoyalarining ishtiroki taxminan 57 mln. rublga teng bo’lgan. Mis qazib olishga kelsak, 1913-yilda ingliz korxonalarini umumiy eritishning 52,5%, Qishtim jamiyatining o’zi mahsulotning 45% yaqinini, shu jumladan elektrolitik misning katta qismini ta’minlagan [9].

Xorij sarmoyasi, misdan tashqari, rangli metallurgiya boshqa turdagi konlarda ish olib borishni, masalan, qo’rg’oshin-rux rudalarini qazishni ham moliyalashtirdi, ammo korxonalar hali tashkiliy davrda bo’lganligi sababli, bu investitsiyalarning ishlab chiqarish samarasi katta emasdi.

Rossiya bozorida mustaqil ingliz kompaniyalarining paydo bo’lishidan oldin, odatda, nisbatan kichik aksiyadorlik sarmoyaga ega bo’lgan hamda opsiya va Rossiyadagi rangli metallarni qazib olish bo’yicha konsessiyalarni sotib olish va keyinchalik qayta sotish bilan shug’ullanadigan turli vositachi uyushmalar va tashkilotlar faoliyat olib borgan. Shunday jamiyatlardan biri “Angliya-Sibir korporatsiyasi” (“Anglo-Siberian Corporation”) edi.

Ushbu jamiyat 1906-yil dekabr oyida Londonda ta’sis qilindi. Angliya-Sibir korporatsiyasining maqsadlaridan biri Qishtim tog’-kon okrugida foydali qazilmalarni o’zlashtirish bo’yicha opsiya sotib olish edi. Angliya-Sibir korporatsiyasi tomonidan o’tkazilgan dastlabki geologik tadqiqot natijalari umid uyg’otdi.

Qo’shimcha mablag’larni investitsiya qilish zarurati shunga olib keldiki, Qishtim opsiya ustidan nazorat Buyuk Britaniyada ushbu maqsadda maxsus tuzilgan “Perm korporatsiyasi jamiyatiga” o’tkazildi. Yangi kompaniya aksiyalarining to’rt dan uch qismidan ko’prog’i Angliya-Sibir korporatsiyasi portfelida edi.

1907-yil oxiriga kelib “Perm korporatsiyasi” tomonidan Qishtimda ishlab chiqarishni rivojlantirishga qo’shgan qo’shimcha mablag’lar hajmi 200 ming funtga sterlingga yetdi. Vaziyatning noaniqligi va o’z mablag’larining cheklanganligi sababli, “Perm korporatsiyasi” rahbariyati tog’-kon okrugini rivojlantirish uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga oladigan yangi, yirikroq kompaniya tashkil etishga qaror qildi.

Aksiyadorlik sarmoyasi 1 mln. funt sterling bo’lgan bunday jamiyat - “Qishtim korporatsiyasi” 1908-yil 29-oktyabrda Londonda tashkil topdi [10].

1910 yil oxirida, Qishtim zavodlarining faoliyati nihoyat daromad keltira boshlaganida, Angliya-Sibir korporatsiyasi «Perm korporatsiyasining» aksiyalarini sotib oldi, ko’p o’tmay, ikkinchisi o’z faoliyatini to’xtatdi. Ikki yil o’tgach, Angliya-Sibir korporatsiyasi boshqaruvi kompaniyani tarqatib yuborishni ma’qul ko’rdi.

1860-yillarda jahonda ishlab chiqariladigan oltinning qariyb 13% Rossiyaga to'g'ri kelar edi. 1870-yillar boshida bu ulush 20% gacha ko'tarilgan va 1875 yilgacha bu ko'rsatkichni saqlab qolgan. 1900-yilda Rossiyada jahon oltinining 10,6%, XX asr boshlarida esa 5-7% ishlab chiqarildi. Rossiya oltin qazib oluvchi eng yirik beshta davlat qatoriga kirgan edi. XIX-asr 90-yillar boshlariga qadar oltin qazish darajasi bo'yicha Rossiya faqat AQSh va Avstraliyadan keyingi o'rinda turgan. 1890-yillar boshida, Afrikaning janubidagi Transvaalda oltin qazib olish boshlanishi sababli, Rossiya to'rtinchi o'ringa surib chiqarildi va 1917-yilgacha shu o'rinda qoldi [11]. Rossiyada qazib olingan barcha oltin, 1901 yilda Rossiyada oltinning erkin muomalasi joriy etilgunga qadar, davlat g'aznasi uchun sotib olinardi [12].

1890-yillarda, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatori, oltin sanoati ham yuksalib bordi, va shu tufayli unga sezilarli miqdordagi xorijiy sarmoyalar jalb qilindi. Ammo, 1900-yilgi inqiroz oltin sanoati rivojiga ham ta'sir ko'rsatdi, natijada oltin qazib oluvchi kompaniyalarning aksariyati ko'p o'tmay tugatildi.

1906-yildan boshlab oltin sanoatida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi, shu bilan birga, yangi sarmoyalar kirib kela boshladi. Qolaversa, mablag'lar bilan birga oltin qazishning mexanik drenaj usuli paydo bo'ldi. Eng yirik kompaniyalar Britaniya ta'siri ostida bo'lgan, jumladan, ularning eng kuchlisi "Lena oltin qazib olish shirkati" ("Lenzoto") edi.

"Lenzoto" 1850-yillarning oxirida Sibir savdogarlari tomonidan tashkil etilgan. 1886-yildan boshlab Lena oltin sanoati mintaqasi bo'yicha Rossiyada birinchi marotaba oltin qazib olish uchun gidravlika ishlatila boshlandi [13]. 90-yillar boshida kompaniya hududlarida boy oltin konlari topildi. Bu esa unga Rossiyadagi oltin qazib oluvchi kompaniyalar orasida yetakchi o'rinni egallash imkonini berdi. Biroq asrning oxiriga kelib, konlarning tugashi yuz berdi. Shu sababli, shirkatning moliyaviy ahvoli sezilarli darajada yomonlashdi.

1901-yilda sinishi muqarrar bo'lgan kompaniyaga Davlat banki yordamga keldi. 1901-1903-yillarda bank tomonidan Lena shirkatiga berilgan kreditlar hajmi 11,2 mln. rublni tashkil etdi [14].

1906-yilda shirkatga Britaniya sarmoyasini jalb qilishga harakat qilindi. Muzokaralar chog'ida Lena daryosining oltinga boy havzasida oltin qazib olish bilan shug'ullanuvchi bir qator rus kompaniyalarini yagona aksiyadorlik jamiyatiga birlashtirish taklifi muhokama qilindi.

Muzokaralar muvaffaqiyatli o'tdi va 1906-yil noyabr oyida Londonda "Rossiya tog'-kon korporatsiya"sining, ya'ni asosiy vazifasi Rossiyada foydali qazilmalarni o'zlashtirish bo'yicha konsessiyalar va opsionlar savdosi bilan shug'ullanish bo'lgan vositachi kompaniyaning nizomi tasdiqlandi. Korporatsiya tashkil etilgan vaqtda unga tegishli aksiyalarning katta qismi (ya'ni 68,1%) inglizlar qo'lida edi.

"Rossiya tog'-kon korporatsiyasi" 1908-yilda "Lenzoto" kompaniyasining 74,5% aksiyalarini sotib oldi va ular uchun 700.000 rubl to'ladi. O'sha yilning iyul oyida "Rossiya tog'-kon korporatsiyasi" ushbu aksiyalarni rus uyushmasini xarid qilish uchun Londonda maxsus tuzilgan "Lena Goldfields" nomli boshqa ingliz kompaniyasiga sotdi.

1867-yil 29-maydagi "Platina sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" maxsus farmonga ko'ra, xususiy shaxslarga platinani qazib olish, tozalash va qayta ishlashga ruxsat berildi, va qolaversa, platina xom ashyosi mamlakatda erkin muomalada bo'lishi va xorijga eksport qilinishi mumkin edi.

XIX asr oxiriga kelib Rossiya platina qazib olish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi va bu joyni keyingi yillarda saqlab qoldi. 1911-yilda Rossiya jahon platina ishlab chiqarishining 93,1% ni, Kolumbiya - 6,1% ni, AQSh - 0,5% ni va Avstraliya - 0,3% ni [15] ta'minladi.

Platinaning sochma konlari Rossiyada faqat Uralda, Perm guberniyasi hududida, asosan, Is va Tura daryolari havzasida mavjud edi.

Uralda qazib olingan platina "xom" deb ataldi, chunki uning tarkibida taxminan 83% sof metall bor edi. O'rtacha olganda, xom platina tarkibida, 83% sof platinadan tashqari, 10% mis, temir va qo'rg'oshin, 5% iridiy va 2% oltin bor [16], deb hisoblanar edi.

Ushbu platinaning barchasi olibsotarlari orqali platinani tozalaydigan xorijiy, asosan ingliz, qayta ishlovchilarining qo'lga tushardi. Xom va tozalangan platina narxlari o'rtasida sezilarli tafovut mavjud edi va bundan to'liq foydani ingliz qayta ishlovchilari firmasi "Jonson Matthey va Ko" ko'rar edi.

Boshqa xorijiy kompaniyalar qatorida sarmoyasi 2,3 mln. rubl bo'lgan "Angliya-Rossiya platina sanoati aksiyadorlik jamiyatini" ta'kidlash kerak. Biroq, u o'zining barcha asosiy mablag'ini kompaniyaning dastlabki ta'sischilaridan huquqlarni sotib olishga sarfladi va deyarli hech qanday qazish ishlarini olib bormadi.

V.V.Sergeyevning ma'lumotlariga ko'ra, XX-asr boshida Britaniya sarmoyasi (507,5 mln. rubl) rus iqtisodiyotidagi investorlar ro'yxatida faqat fransuzlarnikidan keyingi ikkinchi o'rinni egalladi[17].

**Xulosa va takliflar.** Xorijiy sarmoyalarni jalb qilish ehtiyoji Rossiyadagi iqtisodiy vaziyat, uning rivojlanish xususiyatlari bilan oldindan belgilab qo'yilgan edi.

Rossiya hukumati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi sanoat taraqqiyotini jadallashtirish edi va uni turli sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilmasdan tasavvur qilib bo'lmasdi. Bu maqsadga erishish uchun G'arbning ilg'or tajribasi va texnika yutuqlaridan foydalanish, shuningdek, uning moliyaviy resurslarini jalb etish dolzarb zaruratga aylandi.

Buyuk Britaniya o'z kapitalini Rossiyaga eksport qilgan davlatlar orasida muhim o'rinni egalladi. Britaniya ishbilarmon doiralarining Rossiya iqtisodiyotiga kirib kelishi ko'lam va sur'atlari oshdi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Хеллер К. Отечественное и иностранное предпринимательство в России XIX-начала XX века // Отечественная история, 1998, №4. - С.58.
2. 1000 лет русского предпринимательства: Из истории купеческих родов / Сост. О.Платонов. -Москва: Современник, 1995. (<https://www.universalinternetlibrary.ru/book/25002/ogl.shtml>) дата обращения: 23.05.2024.
3. Васильева Л.В. Участие иностранного капитала в экономике Российской империи и его влияние на торгово-промышленное развитие Западно - Сибирского региона в конце XIX - начале XX вв. // Налоги. Инвестиции. Капитал. 2004, №3-4. - С. 34-42 ( <https://stmvl.livejournal.com/611055.html>) дата обращения: 23.05.2024.
4. Оль П.В. Иностранные капиталы в народном хозяйстве довоенной России. - Ленинград: Изд-во Всесоюз. акад. наук, 1925. - С.23,24
5. Баев О.В. Иностранный капитал в промышленности Кузнецкого бассейна (конец XIX - начало XX вв.): Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Кемерово, 2001. - С.5.

6. Эвентов Л.Я. Иностранные капиталы в русской промышленности. - Москва, - Ленинград: Гос. Соц.- эконом. изд.-во., 1931. - С.65.
7. Петров И.М. Добыча и обогащение руд цветных металлов в Российской империи в начале XX века. // Московский государственный горный университет, ООО «Инфолайн», № 8, 2006. - С.374, 377.
8. Устав Акционерного общества Верх-Исетских горных и механических заводов, бывших Яковлева. - Санкт-Петербург, 1911, - С.8.
9. Эвентов Л.Я. Иностранные капиталы в русской промышленности. - Москва, - Ленинград: Гос. Соц.- эконом. изд.-во., 1931. - С.66.
10. Иностранное предпринимательство и заграничные инвестиции в России: Очерки. - Москва: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 1997. -С. 82.
11. Рукоуев Е.Ю., Курлаев Е.А., Шумкин Г.Н. Горнозаводская промышленность Урала в XVIII - начале XX века: Благородные металлы. - Екатеринбург: УрО РАН, 2020. - С.112.
12. Маркова Н.А. Дальневосточная золотодобывающая промышленность и ее влияние на освоение региона (вторая половина XIX в. - 1917 г.): Автореф. дис... канд. ист. наук. - Хабаровск, 2007. - С.19.
13. Ленские золотые прииски. // (<http://bsk.nios.ru/enciklodediya/lenskie-zolotye-priiski>) дата обращения: 23.05.2024.
14. Иностранное предпринимательство и заграничные инвестиции в России: Очерки. - Москва: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 1997. - С.89;
15. Вяткин М.П. Платино-промышленная анонимная компания / Монополии и иностранный капитал в России. – Москва, - Ленинград: АН СССР, 1962. - С.142.
16. Рукоуев Е.Ю., Курлаев Е.А., Шумкин Г.Н. Горнозаводская промышленность Урала в XVIII - начале XX века: Благородные металлы. - Екатеринбург: УрО РАН, 2020. - С.124.
17. Сергеев В.В. Роль торгово-экономических факторов в англо-русских отношениях второй половины XIX - начала XX века. // Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. 2012. Вып. 12. - С.38.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).